

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHI YIG'ILISHINING  
BAYONI**

**Qarshi shahri**

**8-son**

**2024-yil 30-may**

**Kengash a'zolari - 41 nafar**

**Qatnashdilar - 34 nafar**

**Qatnashmadi - 7 nafar (sababli)**

1. Qarshi davlat universitetida 2024-yil tarmoq jadvalida kiritilgan vazifalarning bajarilishi bo'yicha tahliliy hisoboti

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov**

2. 2023-2024 o'quv yiliga tayyorgarlik holatining olib borilishi to'g'risida

**O'quv ishlari bo'yicha prorektor A.Xolmurodov**

**Turli masalalar.**

3. Universitet professor-o'qituvchilarini OAKga professor, dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida

4. Universitetda o'tkaziladigan xalqaro va respublika konferensiyalariga qo'yiladigan talablarni tasdiqlash to'g'risida

5. Mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya ishini tayyorlashning yakka tartibdagi ish rejalarini tasdiqlash to'g'risida

6. Tayanch doktorantlarning dissertatsiya mavzulari va ilmiy rahbarlarini o'zgartirish to'g'risida

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov**

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 4732-sonli Farmoni ijrosi haqida

**Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi boshlig'i Z.Fayziyev**

8. Professor-o'qituvchilarning monografiyalarini nashrga tavsiya etish

**Kengash kotibi G.Tojiyeva**

Universitet Kengashi raisi, rektor D.Nabiyev Kengash ishini boshlashdan oldin universitetning bir qancha professor-o'qituvchilarini ilmiy unvon va ilmiy daraja olganligi bilan tabriklab, diplom va sovg'alar taqdim etdi.

Shundan so'ng Kengash kun tartibiga kiritilgan masalalar a'zolar tomonidan tasdiqlandi va yig'ilish davom ettirildi.

## 1-masala.

### Qarshi davlat universitetida 2024-yil tarmoq jadvalida kiritilgan vazifalarning bajarilishi bo'yicha tahliliy hisoboti

Ushbu masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov ma'lumoti tinglandi.

Tarmoq reja jadvalida kafedralar faoliyatini milliy va xalqaro reytinglarda baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan 14 ta parametrining 6 oylik natijalari 30 may holatida tahlil qilindi (Slayd namoyish etildi).

#### **O'rganishlar natijasiga ko'ra:**

- Ilmiy himoya soni rejada **9** ta, amalda **12** ta;
- Ilmiy unvon soni rejada **16** ta, amalda **27** ta;
- «Web of Science» va «Scopus» bazalaridagi maqolalar soni rejada **39** ta, amalda **36** ta;
- Xalqaro jurnallardagi maqolalar soni rejada **234** ta, amalda **219** ta;
- Respublika jurnallardagi maqolalar soni rejada **266** ta, amalda **248** ta;
- Xo'jalik shartnoma va moliyaviy mablag'lar rejada **220** mln, amalda **108,4** mln;
- Patent, foydali model va DGUlar uchun guvohnoma rejada **40** ta, amalda **52** ta;
- Darslik nashr ettirish rejada **3** ta, amalda **12** ta;
- O'quv qo'llanma nashr ettirish rejada **17** ta, amalda **20** ta;
- Monografiya nashr ettirish rejada **10** ta, amalda **6** ta;
- Davlat grantlari uchun yuborilgan arizalar soni rejada **5** ta, amalda **13** ta;
- Xalqaro grantlar uchun yuborilgan arizalar va grantlar soni rejada **1** ta, amalda **3** ta;
- Xorijiy o'qituvchilarni jalb qilish rejada **16** ta, amalda **29** ta;
- TOP-1000 universitetlariga stajirovkaga chiqqan va dars o'tgan PO'lar soni rejada **42** ta, amalda **39** ta;

Kafedralar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak 6 oylik rejasida belgilangan vazifalarni **to'liq bajargan** kafedralar:

Maktabgacha ta'lim, Noorganik kimyo, Rangtasvir va amaliy san'at kafedralari.

#### **Rejadagi ko'rsatkichlarni nisbatan kam bajargan kafedralar:**

"Yangi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi", "Geografiya", "Umumiy fizika", "Zoologiya", "Fiziologiya", "Psixologiya", "Rus tili va adabiyoti" va "Lingvistika" kafedralari.

**-“Web of Science” va “Scopus” ma’lumotlar bazasiga indekslangan jurnallarda maqolalar chop etish bo’yicha eng yaxshi kafedralar:**

O‘zbekiston tarixi kafedrasini 6 ta, Nazariy va eksperimental fizika kafedrasini 5,5 ta, Algoritm va dasturlash texnologiyalari kafedrasini 5 ta, Algebra va geometriya kafedrasini 3 ta maqola chop etganini alohida ta’kidlamoqchiman.

**-“Web of Science” va “Scopus” ma’lumotlar bazasiga indekslangan jurnallarda maqolalar chop etish bo’yicha eng past ko’rsatkichga ega kafedralar:**

Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi 6 ta, Fiziologiya 6 ta, Rus tili va adabiyoti 2 ta, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi 2 ta rejada qo’yilgan bo’lsada chop etilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Kengash

**QAROR QILADI:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor I.Bekpulatovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin;

2. Tarmoq rejani bajarishda yaxshi natija ko’rsatgan: Maktabgacha ta’lim, Noorganik kimyo, Rangtasvir va amaliy san’at kafedralari e’tirof etilsin;

3. Tarmoq rejani nisbatan kam bajargan: Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi, Geografiya, Umumiy fizika, Zoologiya, Fiziologiya, Psixologiya, Rus tili va adabiyoti, Lingvistika mudirlariga tarmoq rejadagi kamchiliklarni bartaraf qilish vazifasi yuklatilsin;

4. Barcha kafedra mudirlariga: Kafedraning yillik tarmoq rejasini 2024-yil 31-dekabrgacha to’liq bajarilishi ta’minlash choralari ko’rish, rejani bajarmagan kafedra mudirlari va tegishli professor o’qituvchilarga belgilangan tartibda jazo choralari ko’rilishi to’g’risida ogohlantirilsin;

5. Ushbu qaror ijrosi nazorati I.Bekpulatovga yuklatilsin.

**2-masala.**

**Qarshi davlat universitetida 2023/2024 o’quv yili yakunlari va 2024/2025 o’quv yiliga tayyorgarlikni tashkil etish to’g’risida**

Ushbu masala bo’yicha o’quv ishlari bo’yicha prorektor A.Xolmurodov axborot berdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib Kengash

**QAROR QILADI:**

1. Qarshi davlat universiteti O’quv ishlari bo’yicha prorektor A.Xolmurodovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Fakultet dekanlar va kafedra mudirlariga bir oy muddatda:

- Vazirlikning 2024 yil 29 apreldagi “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo’yicha namunaviy tartibni tasdiqlash

to'g'risida"gi 136-sonli buyrug'iga asosida barcha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun 2024/2025 o'quv yilida ishlab chiqiladigan fanlarning o'quv dasturlarida mustaqil ta'limni tashkil etishning yagona "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish namunaviy tartibi" mezonlari bo'yicha ishlab chiqsin va HEMIS platformasiga joylashtirsin;

-o'quv laboratoriyadan samarali foydalanish, nazariy fan(modul)larni amaliyotga qo'llash maqsadida tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning ishchi o'quv rejalaridagi majburiy hamda tanlov fanlari blokidagi fan(modul)larga o'quv laboratoriya mavzularini kiritsin hamda o'quv laboratoriya ishlanmalarini ishlab chiqsin.

-universitetda barcha ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha mutaxassislik fan(modul)lardagi asosiy adabiyotlarni tahlil qilsin va zamonaviy adabiyotlar bilan ta'minlash uchun ro'yxatni shakllantirsin;

- yangi o'quv yilida yuqori kurslar uchun tayyorlanayotgan o'quv meyoriy hujjatlar: o'quv reja, ishchi o'quv reja, fan dasturi, ishchi fan dasturi, sillabuslar, mustaqil ta'lim va laboratoriya ishlanmalari o'quv-uslubiy majmua hamda malakaviy amaliyot dasturlarini tasdiqlash universitet Kengashidan so'ralsin;

-Vazirlikning 2024-yil 12-martdagi 66-sonli "Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamalarini optimallashtirish to'g'risida"gi buyrug'i ijrosi ta'minlansin.

3. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash o'quv ishlari bo'yicha prorektor A. Xolmurodov zimmasiga yuklatilsin.

**Turli masalalarda 3,4,5,6,7,8 masalalar ko'rib o'tildi.**

**Kengash raisi**

**D.Nabiyev**

**Kengash kotibi**

**G.Tojiyeva**

